Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ASOSIY YO'NALISHLARI.....	1004
Nazarov Sanjar Nasridinovich	
KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA).....	1009
Sirojov Oxunjon Odil o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI	1015
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELİ	1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	1031
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES	1036
Ataxanov Umidbek Olimovich	



AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IIY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ»	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI	1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMI.....	1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI	1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHIIYATI	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
ASOSIIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	1095
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
O'ZBEKISTONDA OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIIY AHAMIIYATI	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI	1121
Sultonov Xudoyshekur G'ayratovich	
IQTISODIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	1126
Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА	1135
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI	1140
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
Mu Zhendi	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
Z.T. Bakayev	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
Аблаева Валентина Борисовна	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI.....	1169
Saparov Murod Irgashovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI".....	1177
Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1183
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	1192
Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
Zuxurova Nargiza Abdusattarovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.....	1221
Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSİYALARGA TA'SIRI.....	1228
Poyonov Jamshid	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....	1232
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
Utegenov Ilham Baxtiyarovich	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA).....	1250
Otabekov Javdod Nurulla o'g'li	



GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)

Otabekov Javdod Nurulla o'g'li

Guliston davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi

ORCID:0009-0007-0681-176X

otabekovjavadod@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada go'sht yetishtirish jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi asoslab berilgan. Xususan, intensiv boqish usullari, genetik seleksiya, sun'iy urug'lantirish hamda raqamli boshqaruv tizimlarining ishlab chiqarish hajmi va rentabellikka ta'siri o'rganilgan. Jizzax viloyati misolida mavjud texnologik jarayonlar tahlil qilinib, mahsulot tannarxini kamaytirish hamda resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari aniqlangan. Tadqiqot natijasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy-matematik model ishlab chiqilgan va amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, samaradorlik, intensiv boqish, genetik seleksiya, raqamli boshqaruv, tannarx, rentabellik, modernizatsiya.

Abstract. This article substantiates the economic efficiency of introducing modern innovative technologies in meat production. Specifically, it examines the impact of intensive feeding methods, genetic selection, artificial insemination, and digital management systems on production volume and profitability. Using Jizzakh region as a case study, existing technological processes were analyzed, and opportunities for reducing production costs and improving resource efficiency were identified. Based on the findings, an economic-mathematical model aimed at enhancing production efficiency through the implementation of innovative technologies was developed, along with practical recommendations.

Key words: innovative technologies, efficiency, intensive feeding, genetic selection, digital management, cost reduction, profitability, modernization.

Аннотация. В статье обоснована экономическая эффективность внедрения современных инновационных технологий в процесс производства мяса. В частности, исследовано влияние интенсивных методов откорма, генетической селекции, искусственного осеменения и цифровых систем управления на объем производства и рентабельность. На примере Джизакская область проанализированы существующие технологические процессы, выявлены возможности снижения себестоимости продукции и повышения эффективности использования ресурсов. По результатам исследования разработана экономико-математическая модель повышения эффективности производства при внедрении инновационных технологий, а также предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: инновационные технологии, эффективность, интенсивный откорм, генетическая селекция, цифровое управление, себестоимость, рентабельность, модернизация.

KIRISH

Bugungi kunda agrar sohada chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, chorvachilik tarmog'ida go'sht yetishtirish hajmini oshirish, mahsulot tannarxini optimallashtirish hamda ichki va



tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy sharoitda chorvachilik tarmog'ining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasiga bog'liq. Intensiv boqish usullari, genetik seleksiya, sun'iy urug'lantirish hamda raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va mahsulot sifatini oshirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va rentabellik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Jizzax viloyati misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud chorvachilik xo'jaliklarida texnologik jarayonlarni modernizatsiya qilish, ilmiy yondashuvlarni keng joriy etish hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Shu nuqtai nazardan, go'sht yetishtirish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligini ilmiy asosda o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – go'sht yetishtirish jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Chorvachilik sohasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Tadqiqot doirasida ushbu yo'nalishdagi asosiy nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalar tahlil qilindi.

Innovatsiyalar va iqtisodiy samaradorlik masalalari bo'yicha R. Kudratov o'z tadqiqotlarida innovatsion iqtisodiyot sharoitida chorvachilik samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini asoslab bergan. Shuningdek, Q. Mirzayev va N. Eshquvvatova qishloq xo'jaligi resurslaridan oqilona foydalanish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etishning muhimligini ta'kidlaganlar [1].

Sohaning hozirgi holati va statistik tahliliga oid tadqiqotlarda D. Ruziyeva va S. Xaydarova O'zbekistonda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning zamonaviy holatini tahlil qilib, raqamli texnologiyalarning o'rnini yoritib bergan. Z. T. Siddikov esa chorvachilik sektorida innovatsiyalarni qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlarini tadqiq etgan [2].

Raqamlashtirish va "aqlli" texnologiyalarni joriy etish masalalariga J. Otabekov alohida e'tibor qaratgan. U o'z ishlarida go'sht yetishtirish tizimini raqamlashtirish hamda "aqlli qishloq xo'jaligi" konsepsiyasini joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish mumkinligini asoslab bergan. Shuningdek, muallif xalqaro tajriba asosida innovatsion texnologiyalarning go'sht sanoatida samarali qo'llanilishini ko'rsatib o'tgan [5].

Agrar sohani modernizatsiya qilish va klaster tizimini rivojlantirish masalalari ham muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, M. Bekmirzayev o'z tadqiqotlarida klaster tizimi va kooperatsiya aloqalarining agrar sohada resurslardan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi o'rnini asoslab bergan [3].

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy manbalar chorvachilik sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamlashtirish va klasterlashuv jarayonlarini rivojlantirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar ushbu jarayonlarni hududiy xususiyatlar asosida chuqurroq o'rganish zarurligini ham ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Jizzax viloyatining 13 ta tumaniga oid 2015–2025-yillarni qamrab oluvchi statistik ma'lumotlar bazasidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida qishloq xo'jaligi tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasidan samarali foydalanishning hozirgi holati, mavjud rivojlanish imkoniyatlari va istiqbollari tizimli ravishda tahlil qilindi.

Ishda iqtisodiy tahlil, statistik ma'lumotlarni qiyosiy solishtirish, kuzatish hamda ekspert baholash usullari qo'llanildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tajribalar o'rganilib, ularning muhim jihatlari tahliliy yondashuv asosida umumlashtirildi.

Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda asosiy manba sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining chorvachilik va go'sht ishlab chiqarish bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanildi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida chorvachilik tarmog'ini modernizatsiya qilish, naslchilik ishlarini takomillashtirish, ozuqa



bazasini mustahkamlash hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik darajasi va raqamlashtirish ko'rsatkichlari hududlar kesimida turlicha namoyon bo'lmoqda.

Xususan, Jizzax viloyati chorvachilikni rivojlantirish uchun yetarli tabiiy-iqlimiy va iqtisodiy salohiyatga ega bo'lishiga qaramay, go'sht yetishtirish samaradorligi mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Ishlab chiqarishda intensiv boqish usullarini kengaytirish, zamonaviy genetik seleksiya va sun'iy urug'lantirish texnologiyalarini rivojlantirish, shuningdek, raqamli boshqaruv tizimlarini takomillashtirish orqali tarmoq samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatlari mavjud.

Shu bois go'sht yetishtirish jarayonida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy-amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — Jizzax viloyati misolida go'sht yetishtirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish hamda amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida Jizzax viloyatidagi chorvachilik xo'jaliklari faoliyati tanlandi, tadqiqot predmeti esa go'sht yetishtirish jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur tadqiqot natijalari hududda go'sht ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, rentabellik darajasini oshirish hamda zamonaviy boshqaruv tizimlarini keng joriy etishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda Jizzax viloyatining 13 ta tumani bo'yicha 2015–2025-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar bazasidan foydalanildi. Go'sht yetishtirish hajmini oshirish omillarini baholash uchun chiziqli regressiya modeli qo'llanildi. Tadqiqotning natijaviy ko'rsatkichi (Y) sifatida go'sht yetishtirish hajmi (ming tonna), ta'sir etuvchi omil (X) sifatida esa innovatsion texnologiyalarga yo'naltirilgan xarajatlar va raqamlashtirish darajasi (mlrd so'm) qabul qilindi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, 2015–2025-yillar davomida innovatsion xarajatlarning izchil oshib borishi go'sht ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishini ta'minlagan. Dastlabki bosqichda investitsiyalarning yuqori samaradorligi kuzatilgan bo'lsa, o'rta davrda chegaraviy samaradorlikning nisbatan pasayishi qayd etilgan. Biroq 2021-yildan boshlab innovatsion texnologiyalarning tizimli joriy etilishi ishlab chiqarish hajmining tezlashgan o'sish sur'atlarini ta'minlagan (1-jadval).

1-jadval. Jizzax viloyatida go'sht yetishtirish hajmi va unga ta'sir etuvchi omillarning statistik ko'rsatkichlari (2015–2025 yy.)¹

Yillar	Y – Go'sht hajmi (ming tonna)	X – Innovatsion xarajatlar (mlrd. so'm)
2015	139,4	4,2
2016	145,1	5,8
2017	151,8	12,4
2018	158,4	24,6
2019	162,1	45,3
2020	165,4	56,8
2021	168,2	68,9
2022	172,5	88,4
2023	178,1	112,4
2024	185,0	145,0
2025	192,4	178,2

Shu bois, ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq:

- innovatsion xarajatlarni natijadorlik bilan uzviy bog'lash;
- texnologik modernizatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish;
- boshqaruv va raqamlashtirish tizimlarini takomillashtirish.

Agar yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan kelib chiqib, umumiy davr bo'yicha chegaraviy samaradorlikni hisoblaydigan bo'lsak, quyidagi natija olinadi:

$$\Delta Y / \Delta X = 53,0 / 174,0 \approx 0,304$$

1 Muallif ishlanmasi



Mazkur natija shuni anglatadiki, har 1 mlrd so'mlik innovatsion xarajat o'rtacha 0,304 ming tonna (ya'ni 304 tonna) qo'shimcha go'sht ishlab chiqarishga olib kelgan. Bu esa innovatsion investitsiyalarning ishlab chiqarish hajmiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalariga ko'ra, innovatsion xarajatlar bilan ishlab chiqarish hajmi o'rtasida yuqori darajadagi ijobiy korrelyatsiya mavjud. 2015–2025-yillar ma'lumotlari asosida X (innovatsion xarajatlar) va Y (go'sht ishlab chiqarish hajmi) o'rtasidagi bog'liqlik quyidagicha baholandi:

- korrelyatsiya koeffitsienti: $r \approx 0,97$


Bu qiymat juda kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini anglatadi. Ya'ni innovatsion xarajatlar oshgani sari go'sht ishlab chiqarish hajmi ham izchil oshib bormoqda. Mazkur bog'liqlik statistik jihatdan yuqori darajada ishonchli hisoblanadi.

Determinatsiya koeffitsienti tahlili ham yuqori natijani ko'rsatdi:

- $R^2 \approx 0,94$

Bu esa ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlarning 94 foizi aynan innovatsion xarajatlar bilan izohlanishini bildiradi. Qolgan 6 foiz esa ozuqa bazasi, iqlim sharoiti, boshqaruv sifati va boshqa omillar hissasiga to'g'ri keladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bunday yuqori darajadagi bog'liqlik mavjud bo'lgan sharoitda omillar o'rtasidagi munosabatni ifodalash uchun oddiy chiziqli regressiya modelidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, u iqtisodiy jarayonlarni prognozlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.



1-rasm: 2015–2025-yillardagi ma'lumotlar asosida X (innovatsion xarajatlar) va Y (go'sht hajmi) o'rtasidagi chiziqli regressiya modeli²

Yuqoridagi rasm va tahlil natijalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, quyidagi regressiya tenglamasi shakllantirildi:

$$Y = 146,96 + 0,272X$$

Mazkur modelning iqtisodiy talqini quyidagicha izohlanadi:

– $b = 0,272$ – innovatsion xarajatlar 1 mlrd so'mga oshganda, go'sht ishlab chiqarish hajmi o'rtacha 0,272 ming tonna (ya'ni 272 tonna) ga ortadi. Bu ko'rsatkich innovatsiyalarning ishlab chiqarish hajmiga sezilarli ijobiy ta'sirini ifodalaydi;

– $a = 146,96$ – innovatsion xarajatlar nolga teng bo'lgan sharoitda ham ishlab chiqarish hajmining nazariy bazaviy darajasi taxminan 147 ming tonnani tashkil etadi. Bu esa tarmoqda an'anaviy ishlab chiqarish salohiyati mavjudligini va innovatsiyalar ushbu bazani kengaytiruvchi hamda jadallashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'lishini anglatadi.

Shuningdek, umumiy davr bo'yicha hisoblangan chegaraviy samaradorlik ko'rsatkichi ($\Delta Y / \Delta X \approx 0,304$) regressiya koeffitsientiga yaqin natijani ko'rsatdi. Bu esa modelning amaliy jihatdan ishonchliligini tasdiqlaydi.

2 Muallif ishlanmasi



Biroq yillik kesimdagi tahlillar investitsiya samaradorligi vaqt o'tishi bilan nisbatan pasayish tendensiyasini namoyon etganini ko'rsatadi. Ushbu holat iqtisodiyot nazariyasidagi kamayuvchi chegaraviy unumdorlik qonuni bilan izohlanadi: dastlabki bosqichda texnologik yangilanishlar yuqori natija beradi, keyingi investitsiyalar esa nisbatan kamroq qo'shimcha mahsulot yaratadi.

Xususan:

- 2015–2018-yillarda innovatsion xarajatlarning o'sishi ishlab chiqarish hajmining yuqori sur'atlarda o'tishiga olib kelgan;
- 2019–2021-yillarda investitsiyalar hajmi sezilarli oshgan bo'lsa-da, ishlab chiqarish o'sish sur'atlari nisbatan barqarorlashgan;
- 2022–2025-yillarda innovatsiyalarning tizimli joriy etilishi va raqamlashtirish darajasining oshishi natijasida ishlab chiqarish hajmining qayta tezlashgan o'sishi kuzatilgan.

Mazkur natijalar mamlakatda amalga oshirilayotgan agrar sohani modernizatsiya qilish siyosati bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan olib borilayotgan raqamlashtirish, naslchilikni takomillashtirish hamda klaster tizimini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar chorvachilik samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, 2020–2030-yillarga mo'ljallangan qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, bu esa tarmoqning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion texnologiyalar va raqamlashtirish go'sht ishlab chiqarish hajmini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, zamonaviy genetik seleksiya, sun'iy urug'lantirish, intensiv boqish usullari hamda raqamli boshqaruv tizimlari ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu texnologiyalarni joriy etish orqali nafaqat ishlab chiqarish hajmi ortadi, balki mahsulot sifati va barqarorligi ham sezilarli darajada yaxshilanadi. Shu bois innovatsion yechimlar tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishda muhim strategik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Takliflar:

Tadqiqot natijalari hamda Jizzax viloyatidagi mavjud holat tahlili asosida sohada samaradorlikni oshirishga qaratilgan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Innovatsion investitsiyalarni natijadorlik bilan bog'lash. Innovatsiyalar uchun ajratiladigan mablag'larni faqat miqdoriy jihatdan oshirish emas, balki ularni aniq natijaviy ko'rsatkichlar (masalan, mahsulot tannarxining pasayishi yoki ishlab chiqarish hajmining ortishi) bilan uzviy bog'langan holda maqsadli boshqarish lozim.
- Texnologik modernizatsiyani chuqurlashtirish. Intensiv boqish usullari, zamonaviy genetik seleksiya va sun'iy urug'lantirish texnologiyalarini chorvachilik xo'jaliklarida keng qo'llash orqali ishlab chiqarishning barqaror o'sishini ta'minlash zarur.
- Raqamli boshqaruv tizimlarini kompleks joriy etish. Chorva mollarini hisobga olish, oziqlantirish ratsionini optimallashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.
- Investitsiyalarni hududiy imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirish. Innovatsion loyihalarni amalga oshirishda Jizzax viloyati tumanlarining tabiiy-iqlimiy sharoitlari va mavjud ozuqa bazasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.
- Samarali monitoring mexanizmini shakllantirish. Innovatsion investitsiyalarning amaliy natijadorligini ta'minlash uchun ishlab chiqarish jarayoni ustidan tizimli nazorat va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Olib borilgan ekonometrik tahlil quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Innovatsion xarajatlar go'sht ishlab chiqarish hajmining muhim determinantlaridan biri hisoblanadi;
2. Tarmoq bosqichma-bosqich kapital sig'imli rivojlanish bosqichiga o'tmoqda;
3. Investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun ularni aniq natijaviy ko'rsatkichlar bilan bog'lash muhim;
4. Kelgusida ko'p omilli ekonometrik modellardan foydalanish yanada aniq va ishonchli natijalarni ta'minlaydi.

Umuman olganda, ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish uchun innovatsion investitsiyalarni maqsadli boshqarish, texnologik modernizatsiyani chuqurlashtirish hamda raqamli boshqaruv tizimlarini kompleks joriy etish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, investitsiyalarning samaradorligi ularning maqsadli yo'naltirilishi va boshqaruv tizimining takomillashganligiga bevosita bog'liqdir. Mablag'larni shunchaki oshirish yetarli emas, balki ularni ishlab chiqarish jarayoni va hududiy imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirish zarur. Samarali boshqaruv va monitoring mexanizmlari orqali innovatsion investitsiyalarning real iqtisodiy natijalarga aylanishi ta'minlanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kudratov R. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida chorvachilik samaradorligini oshirish imkoniyatlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. – 2025. – Mazkur maqolada chorvachilikda innovatsiyalar va samaradorlik masalalari tahlil qilingan.
2. Ruziyeva D., Xaydarova S. O'zbekistonda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish holati tahlili // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil jurnali. – 2024. – Respublika chorvachiligidagi raqamli texnologiyalar va statistik ko'rsatkichlar yoritilgan.
3. Bekmirzayev M. Iqtisodiyotning agrar sohasida salohiyatdan samarali foydalanishning innovatsion yo'nalishlari // Innovations in Science and Technologies jurnali. – Agrar sohada innovatsiyalarni iqtisodiy samaradorlik bilan bog'lash muammolariga bag'ishlangan.
4. O'zbekiston qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va uning agrar sohaga ta'siri // Universal Scientific Research jurnali. – Agrar siyosat, kooperatsiya va klaster tizimi asosida innovatsion rivojlanish masalalari yoritilgan.
5. Otabekov J. Go'sht yetishtirish tizimini raqamlashtirish va "aqlli qishloq xo'jaligi" imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'nalishlari // Actual Problems of Humanities and Social Sciences jurnali. – Raqamlashtirish konsepsiyalari tahlil qilingan.
6. Otabekov J.N. Effective Use of Innovative Technologies in Meat Production in the Livestock Industry // American Journal of Economics and Business Management. – 2025. – Go'sht ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalar samaradorligi o'rganilgan.
7. Siddikov Z.T. Improving Efficiency by Applying Innovations in the Livestock Sector in Uzbekistan // American Journal of Business Management, Economics and Banking. – Chorvachilikda innovatsiyalar orqali samaradorlikni oshirish yo'nalishlari tahlil qilingan.
8. Mirzayev Q., Eshquvvatova N. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari // Yashil iqtisodiyot jurnali. – Davlat qo'llab-quvvatlashi va resurs samaradorligi tahlil qilingan.
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Qishloq xo'jaligi statistik ma'lumotlari. – Chorvachilik va go'sht ishlab chiqarish bo'yicha rasmiy statistik ko'rsatkichlar manbasi. – Rasmiy sayt: <https://stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>